

OGAHYIY TARJIMONLIK MAHORATI NAJMIDDIN KOMILOV TADQIQIDA

Karimova Nigina Xurshidovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU 401-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15620185>

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli adib va tarjimon Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning tarjimonlik mahorati taniqli adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Ogahiyning Sharq mumtoz adabiyoti va tarixiy asarlarni tarjima qilishdagi uslubiy yondashuvi, tarjimada syujet, obraz va poetik tafakkurni asliga sodiq holda yetkazishdagi mahorati tahlil etiladi. Maqola davomida Komilovning ilmiy izlanishlari orqali Ogahiy tarjimonlik faoliyatining dolzarb jihatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ogahiy, tarjimonlik, Najmiddin Komilov, adabiy tarjima, syujet, poetika, Sharq adabiyoti.

Kirish.

Tarjima madaniy aloqalarning ko'zgusi, millatlararo tafakkur almashinuvining eng muhim vositasidir. Ayniqsa, bu jarayonda Muhammad Rizo Ogahiyning tutgan o'rni beqiyosdir. Uning faoliyati haqida so'z yuritish ekanmiz, albatta, professor Najmiddin Komilovning izchil tadqiqotlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Komilov Ogahiy ijodini faqatgina tarjimon sifatida emas, balki tarixchi, adib va ma'naviy merosni targ'ib qiluvchi siymo sifatida ham o'rganadi. Ogahiy XIX asrning yirik adiblaridan biri bo'lib, Xiva xonligi davrida yashab ijod qilgan. U fors va turkiy tillarda yaratilgan ko'plab tarixiy, diniy va adabiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, she'riyat bo'stonining ajoyib guldastalari hisoblanmish "Ta'vezul-oshiqin" devonini va "Gulshani davlat", "Iqboli Feruziy", "Zubdatul-tavorix", "Jomeul-voqeot", "Daloyil-al-hayrot" kitoblarini bizga meros qoldirgan ulug' shoir va tarixnafis Muxammad Rizo Ogahiy Sharq adabiyoti va ilm-fanining durdonalari "Kobusnoma", "Haft paykar", "Hasht bihisht", "Yusuf va Zulayho", "Bahoriston", "Ravzatus-safo", "Zafarnoma", "Nodirnoma", "Axloqi Muhsiniy" kabi yigirmadan oshiq asarni o'zbek tiliga tarjima qilib, madaniyatimiz xazinasini boyitgan buyuk siymo hamdir. Tarjimonning o'zi aytib o'tganidek, bulardan birgina "Daloyil-al-hayrot" usmonli turk tilidan ya'ni arab tilidan tarjima qilingan bo'lib, qolgan o'n to'qqiztasi esa fors-tojik tilidan tarjima qilingan. Shulardan 9 tasi badiiy, 6 tasi tarixiy, 4 tasi didaktik asarlardir. Turli janr, xilma-xil soha va mavzularga mansub bo'lgan bu asarlarning tarkibini Ogahiy to'la va aniq tarjima etgan, ularning har biriga xos xususiyatlarni saqlashga, harakat qilgan.

Ogahiy tarjima asarlariga alohida e'tibor qaratgan inson, professor Najmiddin Komilov bo'lib, Ogahiy tarjimalarining asl nusxalari bilan solishtirib, uning mahoratiga juda katta baho bergan. Najmiddin Komilov Ogahiy tarjimalarini tahlil qilarkan o'zining "Klassik tarjimada uslub" maqolasida shuni aytib o'tadiki: "Badiiy tarjima sohasida Ogahiyning o'ziga xos erkinliklari bor. U o'zi tarjima qilgan asarlarning ba'zilarini goho kompozitsiyon jihatdan qisqartirgan; boblar, hikoyatlarni tashlab ketib, asarni ixchamlashtirish yo'lidan borgan. Qisqartirishlar har bir asarda turli darjda: birida ozroq, boshqasida ko'proq. Qisqargan qismlar ham ahamiyati jihatidan bir xil emas". Ogahiy tarjimalariga qaraydigan bo'lsak, eng ko'p qisqartirilib tarjima qilingan asar Muslihiddin Shayx Sa'diyning "Guliston" dostonidir. Ogahiy

“Guliston” dagi 181 hikoyatdan 25 tasini tushirib qoldirgan. Hikmatli soʻzlar va aforizmlardan tashkil topgan oxirgi bobning nasriy qismidagi 116 hikmatdan Ogahiy faqat 30 tasini tarjima qilgan. Asardagi 1000 baytga yaqin sheʼrdan tarjimada 522 baytdan ortiqrogʻi mavjud. Shuningdek, asardagi arabcha jumla va sheʼrlar ham tarjima qilinmagan. Bu qisqartirishlarning sababi shundaki, asardagi hikoyatlarga diqqat qilinsa, ularning bir qanchasi mazmun va mavzuyi jihatidan tarjima qilingan hikoyatlarga yaqin ekanligi maʼlum boʻladi. Saʼdiy bir fikrni ikki-uch hikoyatda yangi-yangi tasvir va tafsilotlar bilan bayon qilgan. Ulardan faqatgina bittasini tarjima qilgan. Misol qilib oladigan boʻlsak polvonlar toʻgʻrisida uchta hikoyat mavjud. Birida polvonning ustoziga hurmatsizligi, ikkinchisi gap koʻtarmay johillik qilgani, uchinchisida qoʻrqoqligi tasvirlanadi. Ogahiy bulardan faqat ikkitasini tarjima qilib, uchinchisini tarjima qilmagan. “Guliston” asarida qisqartirishlar koʻproq boʻlsa, boshqalarida biroz kamroqdir. “Qobusnoma” tarjimasidagi oʻzgarishlarning xususiyati “Guliston” tarjimasidagiga nisbatan bir oz boshqacharoq. “Qobusnoma”da soʻz ishlatish erkin boʻlganligi sababli, dialoglar toʻliq boʻlib, tarjimada ham bu aynan berilgan. Ogahiy xuddi shunday soddalashtirishni koʻzlagan va ayrim hikoyatlarning asosiy matniga ham ilovalar kiritganini koʻramiz. Asardagi ibora va soʻz birikmalarini choʻzibroq tarjima qilish, arabcha soʻz va terminlarni keltirib, uni mazmuni izohlab ham berganligini koʻrishimiz ham mumkin.

Ogahiy tarjima qilgan asarlarning barchasi anʼanaga koʻra hamd va naʼt bilan boshlangan. Yozuvchilar bundan keyin oʻz hukmdorlarining maqtovi, kitob yozilishining sabablari haqida bir necha boblar qoʻshilib, keyin esa asar haqida yozganlar. Ogahiy tarjimalarida asl nusxalarning bu tomoniga erkin munosabatda boʻlgan. Ayniqsa, Ogahiy barcha debocha va bagʻishlovlarga muayyan oʻzgarishlar kiritgan. Ogahiy tarjimalari uchun umumiy xususiyat hamd va naʼt qismlarini saqlab qolgan holda shoh va amaldorlarga atalgan boblarni oʻzgartirgan. Ogahiy asarlarini baytma-bayt tarjima qildim deganda, qisqartirishlarni nazarda tutmagan asosiy oʻringa syujetga oʻzgartirish kiritmaganligi, matn mazmunini saqlaganini aytgan. “Yusuf va Zulayho” ning kirish va xotima qismlarini qisqartirganligi asosiy syujetga taʼsir qilmagan. Bu maʼlumotlar Ogahiy “Qobusnoma”, “Yusuf va Zulayho”, “Shoh-u Gado” asarlari tarjimasida “Guliston” ga nisbatan boshqacharoq yoʻl tutilganligini koʻrishimiz mumkin. Ogahiy tarjimonlik mahorati, oʻtkir talantining olmos qirralari har bir asar tarjimasida alohida namoyon boʻladi.

Xulosa.

Ogahiy tarjimashunoslik sohasiga katta hissa qoʻshgan buyuk tarjimondir. Ogahiy tarjimalarining chuqur ilmiy tahlili, ayniqsa, Najmiddin Komilovning bunday tahlillarga bergan falsafiy-badiiy baholari bugungi tarjimashunoslik sohasining nazariy va amaliy rivojida muhim omil boʻlib, yosh tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini oʻtaydi. Shu bois ham, Ogahiy ijodini Komilov nigohi orqali oʻrganish nafaqat adabiy merosni anglashda, balki tarjima nazariyasini chuqurlashtirishda ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Ogahiy tarjima jarayonida matnning mohiyatini, uning estetik va gʻoyaviy qatlamlarini chuqur anglab, uni oʻzbek mumtoz adabiyoti ruhi bilan uygʻunlashtira olgan. Bunday yondashuv Ogahiyning oddiy tarjimon emas, balki matn bilan ruhiy-intellektual muloqot qiluvchi ijodkor sifatida namoyon etadi.

REFERENCES

1. A.Abduq‘afurov. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999.
2. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. – T.: 1963.
3. N.Jumaxo‘ja. O‘zbek adabiyot tarixi - Toshkent, 2019.
4. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. – T.: 1970.
5. Q.Munirov. Xorazmda tarixnavislik. – T.: 2002.
6. Tarjima san’ati.Maqolalar to‘plami. –T.: 1973.